

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Shernazarov, X.Jamolova	
"BOBURNOMA"ning forscha misralari	91
S.Halimov	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi	95
<hr/>	
TILSHUNOSLIK	
Z.Akbarova, M.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
G.Davlyatova	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	107
Z.Alimova, S.Gafurova	
"SADOI TURKISTON" gazetasi va undagi bir maqola xususida	114
G.Raximova	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar	120
J.Ibragimov	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi	123
N.Xasanboyeva	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari	127
D.Ganiyeva, D.Ismoilova	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari	130
M.Qurbanova	
O'zbek tilshunosligida okkazional birliklar tadqiqi	134
L.Masharipova	
Til va madaniyat	139
Sh.Jumaqulova	
O'zbek tilida "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi	144
X.Maripova	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari	147
A.Mattiiev	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar	151
A.Yuldashev	
So'z ma'nosi xususida	154
D.Gaziyeva	
Funksional va stilistik jihatdan media tili	159
U.Yokubbayeva	
"Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida qo'llangan "yashil" leksemasining semantik takomili	164
N.Umarova, M.Abduolimova	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari	170
<hr/>	
MATEMATIKA	
A.Xasanov, I.Jalilov	
$F_{0;3;3}^{2;2;2}[x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyani qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdag'i differensial tenglamalar sistemasi	173
D.Usmonov, A.Urinov	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar	185

FIZIKA – TEXNIKA

M.Maxmudova, Sh.Shuxratov	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi	193

RAVISH TASNIFIGA DOIR YONDASHUVLAR

APPROACHES TO THE CLASSIFICATION OF ADVERBS

ПОДХОДЫ К КЛАССИФИКАЦИИ НАРЕЧИЙ

Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o'g'li¹¹Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o'g'li

– Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'lgan ravish so'z turkumi haqida ma'lumot beriladi. Maqolada ravish, uning tasniflanishi, ravishning tasnifiga oid bo'lgan yondashuvlар, turli xil fikrlar va umumiy xulosalar haqida ma'lumotlar mavjud. Maqola ushbu mavzuga chuqr yondoshilgani, to'liq tasniflangan bilan ahamiyatli. Ravish haqida va uning tasniflanishi borasidagi asosiy ma'lumotlar ma'qolada ta'kidlab o'tilgan.

Аннотация

В этой статье представлена информация о категории наречий, которая относится к самостоятельным категориям слов. В статье содержится информация о наречии, его классификации, подходах к классификации наречия, различных мнениях и общих выводах. Статья примечательна глубоким подходом к данной теме, полной классификацией. В статье выделены основные сведения о наречии и его классификации.

Abstract

This article provides information about the adverb category, which belongs to independent word categories. The article contains information about adverb, its classification, approaches to the classification of adverb, various opinions and general conclusions. The article is significant for its deep approach to this topic, full classification. The main information about adverb and its classification is highlighted in the article.

Kalit so'zlar: ravish, holat ravishi, daraja – miqdor ravishi, o'rin – payt ravishi, yo'nalish ravishi, so'roq ravishi, ergashiruvchi ravish, sabab ravishi, maqsad ravishi, ma'noviy guruhi, funksional tasnif, semantic tasnif.

Ключевые слова: наречие времени, наречие места, наречие образа действия, наречие частоты, наречия степени, наречия подтверждения, наречия комментария, наречия соединения, положение наречий, функциональная классификация, семантическая классификация.

Key words: Adverb of Time, Adverb of Place, Adverb of Manner Adverb of Frequency, Adverbs of Degree, Adverbs of Confirmation, Adverbs of Comment, Adverbs of Conjunction, position of Adverbs, functional classification, semantic classification.

KIRISH. Manbalarda ingliz tilidagi ravishlar ma'nosiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Harakat holati va usulini ifodalovchi ravish: sadly, slowly, gradually;
2. Daraja – miqdor va o'lchov ravishlari: very, highly, scarcely.

Inliz tilidagi holat ravishlari, o'zbek tilidan farqli ravishda, harakatning bajarilish holatlarini ifodalab, o'rin(here, near, there) va payt (now, today, tonight) ravishlariga ajratiladi.

Holat ravishlari payt, zamon, sabab va maqsad munosabatlari bildiradi. Ayrim tilshunoslar holat va xususiyat ravishi bilan bir qatorda miqdor ravishlarini ham ajratib ko'rsatishadi:[1]

- 1) qualitative: loudly, quickly, brightly;
- 2) quantitative: rather, too, nearly, quite, fully;
- 3) circumstantial: yesterday, often, before, upstairs.

Very, rather kabi miqdor ravishlari harakatning daraja, miqdorini hamda xususiyatini bildiradi. Ingliz tilida belgi- xususiyat ravishiga qaraganda miqdor ravishlarining salmog'i ko'proq. Bu guruhalr yana ichki guruhlarga ajratiladi. Masalan, M.Y.Blox miqdor ravishlarini quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratadi:[2.381]

- 1) high degree: *very, quite, highly, greatly;*
- 2) excessive degree: *too, awfully, tremendously;*
- 3) unexpected degree: *surprisingly, amazingly;*
- 4) adverbs of moderate degree: *fairly, relatively, rather;*
- 5) low degree: *slightly, a little, a bit;*
- 6) approximate degree: *almost, nearly;*
- 7) optimal degree: *enough, sufficiently;*

8) inadequate degree: *insufficiently, ridiculously;*

9) under - degree: *hardly, scarcely.*[3]

Boshqa bir manbada yana ichki guruhlarga ajratish sharti bilan quyidagi guruhlarga ajratiladi.

1. Payt va chastotalilik ravishlari : yesterday, before, often, again, twice.

2. O'rin va yo'nalish ravishlari: upstairs, inside, behind, homewards.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

B.S.Xaymonovich va B.I.Rogovskiy ravishlarni yana boshqa ma'noviy guruhlarga ajratishadi. Ular, asosan, gapda yordamchi vazifasida keluvchi ravishlarni quyidagicha tasniflashadi:[4.298]

1) ergashtiruvchi va so'roq ravishlari: how, when, where, why. Bunday ravishlar, asosan, qo'shma gapni shakllantiradi hamda soda gaplarda kirish so'z vazifasida keladi;

2) bog'lovchi ravish: therefore, however, nevertheless, moreover. Bu leksemalar qaysidir darajada bog'lovchidan ravishga o'tayotgan birliklardir.

V.L.Kaushanskaya esa tuzilishi va ma'nosiga ko'ra – ikki belgi asosidagi tasnifni taklif etadi:[5]

1. Tuzilishiga ko'ra: simple, derivative, compound, composite, manner, degree, measure va quantity;

2. Ma'nosiga ko'ra: adverbs, repetition or frequantly, place va direction, cause va consequence.

Tuzilishiga ko'ra ravishlarning turlariga quyidagi ravishlarni kiritish mumkin:

1. Sodda ravish(simple) – now, there, how, then, thence, when, where

2. Yasama ravish(derivative) – turli turkumga oid o'zaklardan: -ly, -ward, -wise qo'shimchalari bilan yasaladi: badly, homeward, otherwise.

3. Qo'shma ravish: turli o'zaklar kompozitsiyasida tuziladi:

a) ot + predlog: overseas, underground;

b) ot + sifat: meanwhile;

c) ravish+ ot: nowadays;

d) ravish+ predlog: forever;

e) olmosh + so'roq so'zlar: somewhere, anyhow;

f) ravish + ravish: whenever, southwest.

4. Tarkibli (murakkab) ravishlar: on purpose, by chance, at last, at night, by hand, to death

Yana boshqa bir manbada ingliz tili ravishlarning semantik tasnifi 6 guruh sifatida ajratiladi:[6.194]

1. Payt ravishi: today, yesterday, after;

2. O'rin ravishi: here, in, outside;

3. Yo'nalish ravishi: forward, out, north;

4. Tarz ravishi: quickly, hight, together;

5. Chastotalik ravishi: often, daily, once, still;

6. Daraja ravishi: much, little, enough.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ko'rinyaptiki, ravishning ushbu tasnifi o'zbek tilidagi ravish tasnifi bilan hamohang.

Morfologik nuqtai nazaridan ravishlarni birlamchi va ikkilamchi ravishlarga ajratish mumkin. Birlamchi ravish morfologik jihatdan bo'linmas, ularda ravish yasovchi elementlar farqlanmaydi. Bu guruhga soon, there, when, then, why, ever kabi ravishlarni kiritish mumkin. Ikkilamchi ravishlar esa bir o'zakdan yasalgan ravishlar bo'lib, ular so'z yasalish jihatidan tahlil qilinishi mumkin. Bunday ravishlar odatda prefix(today, tomorrow, besides), suffiks (quickly, easily, sidelong) va so'z qo'shish (always, sometimes) bilan hosil qilingan ravishlar bo'ladi.[7.353]

Ravish ma'nolari tasnifida gapning semantic strukturasi va fe'llarning semantik tasnifiga asoslanishi ham o'ziga xos yondashuv hisoblanadi. Tasnifning bu usuli ravish semantikasini yanada chucherroq tahlil qilish imkoniyatini beradi. Masalan, ravishni vaziyat ishtirokchisi bilan bog'liq ravishda tasnif qilamiz. Harakat izohlanayotgan gapda voqeа- hodisa , voqeа – hodisa ishtirokchisi, voqeа – hodisa natijasi kabi komponentlar farqlanadi. Ushbu komponentlat nuqtai nazaridan qaralsa, ravish tasnifini quyidagicha berish mumkin:

TILSHUNOSLIK

- I. So‘zlovchining bajarayotgan ishiga nisbatan.
 - a) so‘zlovchi munosabati: Surprisingly, he is ill.
 - b) so‘zlovchining ruxiy holati: Frankly, Mary is a bore.
 - c) nuqtai nazar, dunyoqarash: Theoretically, cancer is curable.
 - d) nuqtai hatti – harakat xususiyati: Briefly, the claim is false.
 - e) bajarilganlik ravishi: Consequently, to quote the Times.
 - f) bilish yoki gnoseologik ravish: John is probably ill.[8.82]
- II. Voqeа- hodisa xususiyatini aniqlashiga ko‘ra:
 1. O‘rin va paytni tasniflovchi
 2. Baholovchi: wisely, foolishly
 3. Holat: anonymously;
 4. Ruxiy holat: carefully, intentionally
 5. Voqeа – hodisa xarakteri- tarz ravishi: slowly, rapidly;
 6. Natija: temporarily
- III. Daraja:
 1. Tasniflovchi : Mary is very tall.[9.85]
 2. Munosabat ifodalovchi: Mary is surprisingly tall.

Bu tizimdan daraja ravishi tushib qoladi, chunki ravishning bu turi hodisa ishtirokchisi qismalarida ishtirok etmaydi. Tasnif muallifining ta’kidlashicha, ushbu yondashuvning yutug‘l shundaki, tasnif gapning funksional- semantik ifoda usuli bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Bu tasnifga asosan bilishga oid ravish (probably, remarkably), subyektiv baho ravishi (wisely, stupidly), ruxiy holat ravishi (carefully, deliberately) va ko‘plab o‘rin va payt ravishlari gapning tarkibiy qismiga tegishli, daraja va tarz ravishlari, ayrim o‘rin va payt ravishlari fe’ni aniqlash, tasniflashga qaratiladi.[10.17]

J.Kerm funksional va semantik tasnifni taklif etadi, vazifasiga ko‘ra rvishlarni quyidagi to‘rt guruuh ajratadi:

1. Simple adverbs: *yesterday, very, almost.*
2. Sentence adverbs: *perhaps, probably, surely.*
3. Conjunctive adverbs: *I sat where I could see them both plainly.*
4. Interrogative adverbs: *Where does he live?[11]*

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ravish ham boshqa so‘z turkumlari kabi gapda o‘z o‘rniga ega. Ravishning ma‘no turlari, ularning xususiyatlarini o‘rganish ravishning to‘g‘ri tasniflanishiga bir vosita bo‘ladi. Ravishlarning tasnifi, unga tog‘ri yondoshish tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://studbooks.net/921495/literatura/sovremennoyaya_klassifikatsii_narechiya_angliyskom_yazyke
2. Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка. – М.: Высшая школа, 2000. – 381 с.
3. https://studbooks.net/921495/literatura/sovremennoyaya_klassifikatsii_narechiya_angliyskom_yazyke
4. Хаймович Б.С, Роговская Б.И. Теоретическая грамматика английского языка (на англ. языке). – М.: Высшая школа, 1967. – 298 с.
5. <https://studbooks.net/921499/literatura/zaklyuchenie#928>
6. Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. – Л.: Наука, 1971. – 194 с.
7. Иванова И.П., Чахоян Л.П., Беляева Т.М. История английского языка. Учебник. Хрестоматия. Словарь. –СПб.: Лань, 1999. – 353 с.
8. Введение в германскую филологию: [учебник для I-II курсов филол. фактов ун-тов] / Арсеньева М.Г., Балашова С.П., Берков В.П., Соловьева Л. Н.– М: Высшая школа, 1980. – 347 с.–с.82.
9. Кўрсатилган манба. –85-б.
10. Коцюк Л.Н. Системные и функциональные характеристики английских наречий места и направления: автореф. дис. на соискание науч. степени к-та филол. наук: –К., 2002. –17c.
11. https://studbooks.net/2106570/literatura/klassifikatsii_narechiy_angliyskom_yazyke
12. https://studbooks.net/921495/literatura/sovremennoyaya_klassifikatsii_narechiya_angliyskom_yazyke